

## TA'LIMNI TEXNOLOGIYALASHTIRISHNING ILMIY -NAZARIY ASOSLARI

Tojiyev Xakimjon Xoliqovich

*Farg'ona Davlat Universiteti, Harbiy ta'lim fakulteti, katta o'qituvchi.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada harbiy ta'lim mashg'ulotlarida yangi pedagogik innovatsion texnologiyalarni qo'llash, mashg'ulotlarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari nizomlarining talablari asosida olib borish hamda harbiy ta'lim berishda yangi innovatsion texnologiyalarni joriy qilish haqida so'z yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Texnologiya, Qurolli Kuchlar, "Chaqiriqqacha harbiy ta'lim", "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik", harbiy vatanparvarlik, axloq, pedagogika, innovatsiya.*

Respublikamizda olib borilayotgan ta'limdagi islohatlar ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonini yuqori sifatli o'quv adabiyotlar va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimini axborotlashtirishni amalga oshirish asosiy vazifalardan etib belgilangan.

Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Ta'lim va ilm-fan davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish, ta'limning yangi zamonaviy usullarini jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish"- deb ta'kidlashi ta'lim muassasalarida bir qator vazifalarni hal etish zarurligini ko'rsatadi.

Bundan buyon bu boradagi ishlarni rivojlantirish va mavjud ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, harbiy kadrlarni tayyorlash bo'yicha o'quv dasturlar ta'limni texnologiyalashtirish nuqtai-nazaridan yanada takomillashtirilishi soha mutaxassislarining oldidagi muhim va dolzarb masalalardan biri bo'lib qolishi tabiiydir.

Harbiy mashg'ulotlar nazariy, amaliy, ko'rgazmali, taktik, taktik saf, nazorat shakllarida o'qitilishi va ularning aksariyat qismi amaliy bo'lib O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari nizomlarining talablari asosida olib borilishi, otish tayyorgarliklari bo'yicha mashg'ulotlarida o'quv va jangovar qurollar bilan ishlash bo'yicha ko'rsatma va yo'riqnomalarga amal qilinishi, mashg'ulotlarning aksariyat qismi o'quv-moddiy baza bilan chambarchas bog'liqligi, harbiy ta'lim mashg'ulotlarining o'ziga xos tomonlari bo'lib hisoblanadi.

Bunday xulosa harbiy ta'lim mashg'ulotlarida yangi pedagogik innovatsion texnologiyalarni qo'llanishi kutilganidek yaxshi samara bermaydi degani emas. Takidlash joizki, har bir mashg'ulot rahbari tavsiya etilgan texnologiyalarni samara beradiganini tanlay olishi, o'rganuvchilarning faolligini oshirishda ta'lim shakllarining samarali va tejamligini qo'llay olishi hamda mashg'ulot rahbarining pedagogik mahorati, ayniqsa mashg'ulotga tayyorgarlik jarayoniga ijodiy yondashuvi muhim ahamiyatni kasb etadi.

Bu borada mashg'ulot rahbarining harbiycha mashg'ulotlarning o'ziga xos printsiplariga amal qilgan xolda o'z faoliyatiga tanqidiy qarashi, ta'lim berishning ilg'or yangi uslublarini qo'llashda orttirilgan tajribalarga tayanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Mashg'ulot rahbariga endilikda mashg'ulotlarni yuqori darajada tashkil etish va olib borish uchun ilg'or pedagogik innovatsion texnologiyalarni mantiqiy to'g'ri joriy eta olishi, texnologiyalashtirish jarayonida faktlarni tahlil qilishi, umumlashtirish va shu asosda xulosa chiqara olishlariga, shuningdek kasbiy malakaviy talablarga mos keladi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarning tahliliga ko'ra, hozirgi davrda pedagogik texnologiya tushunchasi ta'lim amaliyoti va nazariyasi ilmidan mustahkam o'rin egalladi. Harbiy ta'limni o'qitilish jarayoni mantiqiy ketma-ketlik bilan aniq amalga oshiriladi.

Ketma-ketlik quyidagi bosqichlardan iborat:

- kursantlar oldiga topshiriq qo'yish;
- kursantlarda bilimga bo'lgan qiziqishni hosil qilish;
- kursantlar tomonidan yangi materialni qabul qilinishi;
- qabul qilingan materialni tahlil qilish, umumlashtirish; ilmiy tushunchalarni xosil qilish;
- qonunlarni o'zlashtirish; egallagan bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish;
- malaka va ko'nikmalarni shakllantirish;
- bilim, malaka va ko'nikmalarni qo'llash;
- kursantlar egallagan bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish;
- ta'lim berish natijalarini tahlil qilish.

Bu ketma-ketlik o'qitish jarayonini loyihalashtirilgan xolda izchil va muntazam tashkil etish mumkin.

Harbiy talim berishda innovatsion texnologiyalarni joriy qilinishi bir tarafdin ta'lim beruvchi (o'qitish), boshda tarafdin esa ta'lim oluvchi (o'qish)larni o'zaro chambarchas bog'lanishini yanada mustahkamlaydi va tomonlarning bilim berishidagi va bilim olishidagi faoliyatlarini faollashtirib ijodiy muhitni yuzaga keltiradi degan xulosaga kelish asosidir.

Harbiy ta'lim tizimida pedagogik innovatsion texnologiyalarni joriy etilishi quyidagi vaziflarni bajarilishini taqozga etadi:

- harbiy ta'lim mashg'ulotlarida pedagogik innovatsion texnologiyalarni qo'llanishiga doir metodik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish;
- mashg'ulotlarda pedagogik innovatsion texnologiyalarni qo'llanishiga doir tajribalarni o'rganish;
- harbiy ta'lim va boshda fanlar mashg'ulotlarida pedagogik innovatsion texnologiyalarni joriy etishda mashg'ulotlarning shakl va uslublarini pedagogik innovatsion texnologiyalar asosida o'rganish;
- pedagogik innovatsion texnologiyalar tushunchasi, mazmuni va mohiyatini aniqlash;
- mashg'ulotlarda pedagogik texnologiyalarni qo'llashda texnologik yondashuvning shart-sharoitlarini aniqlash;

Texnologik yondashuv asosida o'qitish quyidagi natijalarni ko'zda tutilishini kafolatlaydi:

- pedagogik texnologiyalar qo'llanishida texnologik yondashuv andozasi va mezonlarini ishlab chiqishni;
- harbiy ta'lim mashg'ulotlarida pedagogik texnologiyalar qo'llanishida texnologik yondashuvga doir ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqishni;
- pedagogik texnologiyalar qo'llanishida texnologik yondashuv metodik muammo sifatida ilmiy - nazariy va amaliy jihatdan harbiy ta'lim mashg'ulotlariga ilk bora tadbiiq etishni;
- "texnologik yondashuv" yangi o'qitish texnologiyasi sifatida harbiy ta'lim mashg'ulotlarini tashkil etish va olib borish iste'moliga kiritilishni;
- "texnologik yondashuv" tushunchasini metodik jihatdan tasnif etishni;
- harbiy ta'lim mashg'ulotlarini olib borilishida "texnologik yondashuv"ni joriy qilishning mazmuni, shakl va uslublarini ishlab chiqishni.

Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning maqsadi kasbiy va shaxsiy rivojlanish jarayonida talabaning o'z-o'zini anglash, baholash va boshqarish kabi tarkibiy qismlarni rivojlantirish va turli ta'lim muassasalarida ishlashga tayyorlash sanalsada, umumkasbiy va ixtisoslik fanlari asoslarini o'rganish vazifalari quyidagilardan iborat bo'lib, aniq pedagogik hamda ishlab chiqarish muammoli vaziyatlarda masalani ajratib olish va ularni hal qilish usuli sifatida pedagogik va texnik-texnologik tafakkurni rivojlantirish orqali amalga oshiriladi.

Bu esa bo'lajak o'qituvchida informatika va axborot texnologiyalari asoslari, axborotlarni saqlash, qayta ishlash, tarqatish va namoyish qilishni bilishi, Microsoft Office dasturlari, jumladan Windows operatsion tizimida ishlay olishi, Microsoft Excel dasturiy muhitida jadvalli ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyasi, Internetning asosiy imkoniyatlari, Internetda axborot maydonlarini saralovchi Web saytlari haqida ma'lumotlar, Internetdan ma'lumot olish va ma'lumotlar kiritish texnologiyalarini bilishi, elektron pochta va undan foydalanish texnologiyalarini, dasturiy ta'minotning asosiy turlarini bilishi va foydalana olishi, fanlardan maxsus taqdimotlar va elektron resurslar tayyorlashi va qo'llay olishi, ta'lim jarayonida amaliy masalalarni echishda axborot texnologiyalarini qo'llash; masofaviy ta'lim elektron o'quv-metodik bazasini yaratish va undan foydalana olishi uchun texnologik yondashuvni taqozo etadi.

O'qitishga texnologik yondashuv o'quv jarayonini aniq vositalar yordamida boshqarish va qo'yilgan o'quv maqsadlariga erishish kafolatini nazarda tutadi. Bu muammo butun dunyo pedagog-olimlari tomonidan hozirga qadar tadqiq etib kelinmoqda.

Texnologik yondoshuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki

loyihalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko'rsatmali

tuzilmada o'z ifodasini topadi. Maqsadga yo'naltirilganlik, oraliq natijalarni tashxisli tekshirib borish, ta'limni alohida o'qitish lavhalariga ajratish kabi usullar hozirgi kunga kelib qayta-qayta takrorlash mumkin bo'lgan ta'lim texnologiyasi g'oyasida mujassamlangan. Texnologik yondoshuv asosan o'z ichiga quyidagi omillarni oladi:

- ta'limda umummaqsadning qo'yilishi;
- mtuzilgan umummaqsaddan aniq maqsadga o'tish;
- talabalarning bilim darajasini dastlabki (tashxisli) baholash.

Shuningdek, pedagogikada texnologik yondashuv doirasida ba'zi hal qilinmagan muammoli masalalar mavjud. Ushbu muammolarni hal etishda texnologik yondashish asosida tashkil etilgan o'quv jarayonida amalga oshirilgan o'qitish vaziyatlariga urg'u beriladi.

Tarbiyalash texnologiyasi - nisbatan yangi atama bo'lishiga qaramay, rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan. Tarbiyalash texnologiyasi yoshlar bilan tarbiyaviy ishlarning g'oyasi, mazmuni, tarkibini emas, balki bu sohadagi hukumat ishlab chiqqan maqsad va vazifalarni samarali amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Tarbiyalash texnologiyasi mo'ljallangan tarbiyaviy maqsadga samarali erishuvni ta'minlovchi vositalar majmuasini ko'rib chiqadi. Shu bois professor-o'qituvchilar uchun har tomonlama rivojlangan yuqori intellektual va ma'naviy barkamol fuqaro shaxsini shakllantirishga qaratilgan talabalarni hukumat siyosatiga muvofiq tarbiyalash texnologiyalarini egallashi dolzarbdir.

Zamonaviy tarbiyalash texnologiyasi - har tomonlama yondoshuvni amalga oshiradi va quyidagi majburiy talablarga rioya qiladi; Tarbiyalanuvchilarga 3 yo'nalish bo'yicha ta'sir

etiladi - tafakkuriga, sezgilariga va xulqiga. Shaxsning ma'lum sifatlari amaldagi tarbiyaviy ishlar majmui orqali hosil qilinadi. Bu ishlar yaqqol ko'rinishdagi ko'p yoqlik bo'lishi, bir vaqtning o'zida aqliy, jismoniy, xulqiy, estetik va mehnat tarbiyasini uzviyligi asosida olib borishi zarur. Har yoqlama yaxlit tarbiyaviy yondashuv tarbiyachining tizimli munosabatini va boshqaruvini taqoza qiladi. Boshqaruv tarbiya jarayonida ishtirok etuvchi tashqi va ichki omillarni va ularning o'zaro ta'sirini inobatga olingandagina muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin.

Texnologik tashkil etilgan o'quv jarayonining belgilari quyidagilardan iborat:

1. Diagnostik (tashxis) maqsadlarni qo'yish.
2. O'quvchilarning kuzatuvchi harakatlari ko'rinishida istalgan etalonni aniqlash asosida ta'limni rejalashtirish.
3. O'quvchilarni boshlang'ich testlashtirish va ularning haqiqiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, o'quv maqsadlarini muayyanlashtirish.
4. Ta'limning borishini tezkor teskari aloqa orqali ta'minlanadigan va o'qishning borishini mos ravishdagi tuzatilishi bilan kuzatiladigan maqsadlarga ketma-ket yo'naltirish.
5. Ta'limni alohida amalga oshiriladigan o'qitish maqsadlariga bo'lib chiqish.
6. O'quv jarayonini to'liq boshqarish.
7. Yakuniy natijaning kafolatlanganligi.

So'nggi yillarda texnologik yondashuv tarafdorlari bilan gumanistik pedagogika tarafdorlari o'rtasida doimiy munozaralar bormoqda.

Gumanistik tarbiya tarafdorlari pedagoglarni ta'lim jarayonini qat'iy loyihalashtirishdan, har bir o'quvchining talabi va qiziqishlari bilan mos ravishda rivojlanish imkoniyatini ta'minlash uchun o'zgaruvchan tashqi ta'sirsiz paydo bo'lgan erkin vaziyatga o'tishga chaqiradilar.

O'z navbatida, texnologik yondashuv tarafdorlarining hisoblashicha, "o'quvchilar pedagogik talablardan xoli bo'ldi deguncha, foydasiz narsalarni deyarli avtomatik ravishda o'zlashtirishni boshlaydilar" degan tasavvurlar gumanistlarning mumtoz xatosi bo'lib hisoblanadi.

Bizning nazarimizda, bugun turli yondashuvlardagi salbiy jihatlarni qidirishdan ko'ra, muammo echimi bo'yicha aniq ilmiy echimlarni topishga o'tish lozim. Bunday yondashishning mohiyati, ta'lim jarayonini tizimlashtirishdan, uni aniq rasmiylashtirilgan va qismlari bo'yicha aniq elementlarga ajratish yordamida maksimal shakllantirishdan iborat. Tadqiqotlarda ta'lim texnologiyasi - bu o'quv jarayoni qatnashuvchilarining (ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar) o'zaro harakat usuli va vositalaridir, degan fikrlar ham bildiriladi. Ta'lim texnologiyasining usul, vosita va shakllari:

- ta'lim maqsadlariga;
- o'quv materialining mazmuniga va murakkablik darajasiga;
- ta'lim oluvchilarning yoshiga, ularning psixologik imkoniyatlariga;
- ta'lim beruvchining pedagogik mahoratiga;
- ta'lim muassasasining moddiy texnik ta'minlanganligiga va dastlabki shart-sharoitlariga qarab tanlanishi va qo'llanilishi lozim.

Ta'lim texnologiyasining ishlab chiqarish texnologiyasidan farqi shundaki, unda dastlabki va so'nggi natijalarga erishishda shaxs (inson) turishidadir. Masalan, an'anaviy o'qitish texnologiyasida o'qituvchi ta'lim jarayonlarida ba'zi o'quvchilardagi o'quv materialini

o'zlashtirish davomida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni aniqlaydi va ularga yakkama-yakka yondashgan holda qo'shim-cha mashg'ulotlar olib boradi. Bunda shaxsni to'laqonli shakllantirish usuli, metodika yoki texnologiyalardan foydalanish nazarda tutiladi. Bizning ilmiy pedagogik nazariya va amaliyotimizda, shaxsni shakllantirish xususiyatlari rivojlantiruvchi texnologiyalardan foydalanuvchi tarbiyaviy jarayon, o'rgatuvchi, hamda didaktik texnologiyalarni amalga oshiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi. Ba'zi ilmiy tadqiqotlarda ta'lim texnologiyalarining xususiy metodikalardan farqli jihatlari ham o'rganilgan.

O'qitish nazariyasida texnologiya metodikadan farqli ravishda:

- mavjud sharoitlardan kelib chiqqan va belgilangan ta'lim natijalariga yo'naltirilgan holda, rejalashtirilgan aniq pedagogik faoliyati orqali;
- ta'lim oluvchilarga va ularning shaxsiy faoliyati hisobiga o'qitishda yutuqlarga erishishlarini ta'minlashga yo'naltirilishi orqali;
- texnologiyada hech qanday qayta o'zgartirish yo'llari, usullari va vosi-talarini almashtirib bo'lmaydigan qilib loyihalashtiriladi.

Bizning fikrimizcha, ta'limni texnologiyalashtirish - bu ta'lim jarayoniga texnologik yondashuv asosida o'quv maqsadlariga kafolatli erishish uchun o'quvchilar va pedagoglarning o'zaro faoliyatining samarali tashkil etilishidir

Ta'limni texnologiyalashtirishning asosiy belgisi va afzalligi o'quv jarayoniga tizimli yondashuvning qo'llanishi, barcha o'quv holatlarini loyihalashtirish asosida o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyatini dasturlashtirish, o'quvchilarning qo'yilgan maqsadga erishuvini ta'minlash maqsadida ta'lim jarayonini ixchamlashtirishdan iboratdir.

Tadqiqotlarda ta'lim texnologiyalari - bu butun ta'lim jarayonini pedagogik masalasini qo'yuvchi texnik va inson resurslari hamda ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda yaratish, qo'llash va ta'riflashning tizimli uslubidir deb ta'riflanadi.

Ta'lim texnologiyasi - bu, o'quv jarayonini mavjud sharoitlarda, belgilangan vaqt davomida rejalashtirilgan natijalarga kafolatli erishishga va ta'lim-tarbiya jarayonlarini amalga oshirishni ta'minlovchi usul va vositalarning tartibli birligini o'zida mujassamlashtiradigan ta'lim mo-delini ishlab chiqish va amalga oshirishning texnologik jarayoni hisoblanadi.

Tadqiqotlar va pedagogik adabiyotlarda zamonaviy o'qitish texnologiyalarini loyihalashning:

- ijtimoiy buyurtma sifatida mavjud davlat talablariga mosligini loyihalash;
- insonparvarlik va demokratik xarakterda bo'lish;
- yaxlitlik birligi;
- ilmiylik;
- nazariya bilan amaliyotning birligi tamoyillari keltirilgan.

Ushbu tamoyillar zamonaviy ta'lim sharoitida mustaqil va erkin fikrlovchi shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi.

Yuqoridagi fikrlar va ta'riflardan kelib chiqib pedagogik texnologiyaning asosiy aniqliklarini sanab o'tamiz:

- bevosita rejalashtirilgan natijaga olib boruvchi pedagogik jarayonning tavsifidir;
- yanada samaraliroq ta'lim shakliga ega bo'lishi uchun, inson va texnik vositalar va ular orasidagi o'zaro ta'sirni hisobga olish yo'li bilan butun ta'lim jarayonini va bilimlarni o'zlashtirishni rejalashtirish, qo'llash va baholashning tizimli metodidir;

- barcha o'quv vaziyatlarini loyihalash asosida o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyatini dasturlashtirish;

- shaxsni shakllantirish jarayonining tavsifiy loyihasi;

- pedagogik jarayonni samarali amalga oshirishning ilmiy asoslangan qayta loyihalaniishi;

- bilimlarni o'zlashtirishning barcha jihatlarini qamrab oluvchi, muammolarni yechishda o'zlashtirish va bilim olishning barcha jihatlarini qamrab oluvchi, muammolarning echilishini rejalashtirish, ta'minlash, baholash va boshqarishning vosita va usullari, g'oyalar, insonlarni o'z ichiga oluvchi kompleks yangilanuvchi jarayondir.

Bugungi kunda o'quvchilarning mustaqil o'rganish faoliyatini rivojlantirish, faollashtirish va shaxsiy qobiliyatlarni rivojlantiruvchi metodlardan foydalanish bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan. Bunday ilmiy tadqiqotlar asosini o'qitish psixologiyasi va pedagogikaning yangi gumanistik konsepsiyasini hisobga olgan holda ta'lim mazmunini tizimli yondashuv asosida ishlab chiqish tashkil etadi.

Xulosa qilib aytilganda texnologiyalashtirishning yangidan - yangi usullari ilmiy - texnik taraqqiyot ishlab chiqarish sohasi bilangina cheklanib qolmay, ta'limning barcha sohalariga ham kirib kelishi, axborotlar hajmining keskin ko'payishi, fan va texnika taraqqiyotining keskin o'sishi, aynqsa raqibni aniqlash tizimi masofadan avtomatik boshqariluvchi datchiklar, retranslyatorlar va axborotni qayta ishlash markazlari jihozlanib bo'lgan bir davrda, harbiy ta'lim tizimini asosiy xalqasi bo'lgan mashg'ulotni mazmunan isloh qilish hamda texnologik yondashuv asosida vo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchisining kasbiy tayyogarliligini rivojlantirish zaruriyati yanada dolzarb ahamiyatni kasb etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni - "O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami", 2017 y. 6-son, 70-modda.

2. Азизходжаева Н. Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. Учеб. пособие для магистратуры всех специальностей. -Т.: ТГПУ, 2003. - 193 с

3. Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бoшқариш назариси ва амалиёти.: Автореф.дис. ... пед. фан. докт.- Т.:2007. -37 б.

4. Qodirov.X.Sh. Talabalarda kasbiy bilim va ko'nikmalarni axborot-texnologiyalari vositasida shakllantirish metodikasi. 13.00.05 - Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi.T., -2017. -31-35 b. 41-42 -46 b

5. Сотволдиев А.Ю. "Чақирувга қадар ҳарбий таълимни ташкил этиш ва унинг методикаси" Ўқув қўлланма, I-II - қисмлар, 2007 йил

6. Сотволдиев А.Ю. Пути эффективного использования метода беседы и наглядных методов на занятиях военного образования. Наука, техника и образование 2019.№4(57) Российский импакт-фактор:1,84 Научно-методический журнал.

7. Синицына, Т.А. Подготовка будущих учителей технологии к инновационной деятельности в области использования информационных технологий. Дис. ...канд. пед. наук: 13.00.02.- М., 2003.- 166 с.

8. Захарова, И.Г. Информационные технологии в образовании [Текст]: учеб. Пособие для студ. Высш. учеб. заведений-3-е изд., стер.-М.: Издательский центр «Академия», 2007.-192с.

9. Sharopova Z.F. Ta'lim texnologoyalari. Darslik. Navro'z nashtyoti. 2019 y. 340 b.